

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10782898>

QADIMGI XORAZMDA SHAHARSOZLIKNING PAYDO BO‘LISHI, O‘RGANILISHI VA REKONSTRUKSIYASI

Madrimov Og‘abek Javlonboy o‘g‘li

Termiz davlat universiteti tarix
fakulteti arxeologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqoloda Qadimgi Xorazm diyorida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, hozirgi kunda Xorazmda olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar va shaharlarni rekonstruksiya hamda O‘zbekiston va chet el olimlarining izlanishlari va ilmiy xulosalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Tozabog‘yop, Tolstov, Ko‘kcha 3. Amirobod, V. M. Masson, Xvarizam, Avesto, Xazorasp, Katqal‘a.

Qadimgi Xorazm Amudaryoning quyi havzalari ya‘ni O‘zbekiston Respublikasi, uning tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda qo‘shni Turkmaniston Respublikasining Toshovuz viloyatini o‘z ichida oladi. Bu zamin qadimiy sivilizatsiya o‘choqlaridan biri hisoblanadi. Bunga sabab Amudaryoning quyi oqimida joylashganligi va o‘z yozuviga ega bo‘lganligi va ko‘plab shahar qal‘alarni bunyod etilganligini biz tarixdan yaxshi bilamiz. Xususan, O‘rta Osiyoliklar muqaddas kitobi hisoblangan Avestoda ham tilga olinadi. Shuningdek yunon-rim tarixchilarining asarlarida ham tilga olinadi. Xususan Xorazm nomi turli xil yozma manbalarda uchraydi: Xorazmiya, Xvarazmish, Xvarizam nomlari bilan uchraydi. Endi Xorazmda shaharsozlikning boshlanishi davlatchilikning O‘rta Osiyoda shakllanishiga to‘g‘ri keladi ya‘ni ilk davlatchilik shakllangan davrga to‘g‘ri keladi. Bu davr miloddan avvalgi VII – VI asrlarga to‘g‘ri keladi. Xususan Ahmadali Asqarov ustozimiz akademik o‘zining tadqiqotlaridan ko‘p yillik tajribalardan kelib chiqib Xorazmda

shaharsozlikning boshlanishiga O‘zbekiston janubiy hududlaridan ya’ni qadimgi Baqtriyadan aholi ko‘chishi natijasida Xorazmda shaharsozlik elementlari ko‘zga tashlanadi ya’ni janubning elementlari ko‘p uchraydi. Xususan Baqtriyaning memorchilik, qurilish elementlari yaqqol ko‘zga tashlanadi deb fikr bildiradi va buni 2001-yilda Xorazm tarixiga doir maqola yozib maqolasida batafsil yoritadi. Ustoz akademik Ahmadali Asqarov fikri bir tomonlama to‘g‘ri albatta lekin boshqa olimlarni fikri esa boshqacharoq.

Xususan Xorazm arxeologiyasini o‘rgangan atoqli olim rus olimi Sergey Tolstov esa bu fikrga qo‘shilmagan. Ular Ko‘zali qir shahrini sanasi yoshini miloddan avvalgi VII asr deb beradi. Shuningdek Yahyo G‘ulomov ham Xorazmni tarixini arxeologiyasini o‘rgangan va ular ham Xorazm shaharlari yoshini miloddan avvalgi VII asr ham emas deb fikr bildiradi. Qadimgi Xorazm diyori o‘ziga xos qadimgi tarixga ega va o‘ziga xos tomonlari bordir. Masalan, hozirgi kunda butun jahon e’tiborini o‘ziga tortib kelayotgan O‘zbekistonning yirik shaharlari turizm markazlaridan biri bo‘lgan Xiva shahridir. Xiva shahri Xorazmning qadimiy shaharlaridan biri bo‘lib miloddan avvalgi V asrda paydo bo‘lgan Yoshi 2500 da. 1997 – yil YUNESKO tomonidan 2500 yilligi nishonlandi va Xiva shahriga “Ming gumbazli shahar” nomi berildi va yana shuningdek “Ochiq osmon ustidagi muzey” nomi berildi. Bu nomlar Xorazm davlatchiligi muhim ahamiyatga ega ekanligini bildiradi va o‘ziga xos tarixga egadir. Qadimgi Xorazm tarixini o‘rganishda keng yoritib berishda arxeologiyaning xizmati kattadir. Xususan XX asrda O‘rta Osiyoda arxeologik tadqiqotlar juda keng miqyosda olib borildi. Xususan Xorazmda ham shunday arxeologik tadqiqot ishlari olib borildi. Birinchi bo‘lib Xorazm arxeologiyasini o‘rganishda rus olimi arxeologi etnografi Sergey Pavlovich Tolstovning xizmati kattadir. Tolstov dastlab 1937 – yilda ish boshlaydi va hu asosda Xorazm arxeologik kompleks ekspeditsiyasini tashkil etadi. Uning ekspeditsiyasi natijasida ko‘plab yodgorliklar aniqlanadi 200 dan ortiqdir. Shular jumlasiga Jombos IV, Ko‘kcha 3,5, Tolstov Makoni Tozabog‘yop madaniyati, Kalta minor madaniyati, Yonbosh qal’a, Amirobod va Suvyorgan madaniyatlarini aniqlaydi. Xususan shuningdek Ko‘zali qir, Xazorasp, Jombosqal’a, Oybo‘yirqal’a,

Qal'ali qir, Tuproqqal'a, Xuznduztepa, Yonboshqal'a, Teshikqal'a, Oqshaxonqal'a va Xiva kabilardir. Xususan Sergey Paxlovich Tolstov Xorazmda, Qoraqalpog'istonda arxeologik ekspeditsiyalar olib bordi. Shuningdek Qizilqumning bir qismi va Sultan Uvays tog' tizmasi bo'yidagi qadimgi Xorazm yodgorliklarini topib o'rganadi. 20 yil davomida 1937 – 1956 – yillar davomida u ayniqsa Ko'zali qir shahrini o'rganadi va uning mudofa davrlari va ahtining joylashishini o'rganadi va shahar yoshini miloddan avvalgi VII – VI asrlar deb baho beradi. Shuningdek Sergey Paxlovich Tolstov birinchi bo'lib O'rta Osiyoda raqamli arxeologiyadan foydalangan. Buning isboti sifatida XX asrda o'rgangan Amirobod madaniyatida birinchi bo'lib yodgorliklarni XX asr 40 – yillarida samalyotda fotosyomka qilgan. Ya'ni fotoapparat bilan rasmga olgan. Bu shuni ko'rsatadiki Xorazm safarlari ancha aniq o'rganganligini ko'rsatadi. Yana shuningdek XX asrda Xorazm arxeologiyasi tarixini o'rgangan olim Yahyo G'ulomovdir. Akademik Yahyo G'ulomov asosan Xorazm shaharlarining qayerdan suv olganini suv olish manbasini o'rgangan. Uning asari “Qadimgi Xorazmning sug'orilish tarixi” asaridir. Bu asarni men o'qiganman. Xorazmning qadimgi davrdan to hozirgacha bo'lgan sug'orish inshootlari kanal, daryo va hokazo berilgan. Men maslahat berardim Xorazm tarixiga yoshlarni qiziqishini. Shu kitobni o'qishni maslahat berardim. Chunki menimcha qanday shahar davlat bo'lsa ham ular biron bir daryo yoki buloqdan suv ichgan bo'lishi kerak. Shahar yoki qishloq aholisiga bu albatta zarur va davr taqozoasi bo'lgan. Yana bir arxeologikdan bittasi Xorazm arxeologiyasi tarixining rivojlanishiga hissa qo'shgan odam Mambetullayev Mirzamurod tomonidan 1979 – yil Oybo'yir qal'adan sopol ustiga yozilgan yozuv namunalari topildi. Oybo'yirqal'adan topilgan yozuv O'rta Osiyodagi oromiy yozuvidagi eng qadimiy yozuv namunasi hisoblanadi.

Chunki Xorazm ham Baqtriya kabi Ahamoniylar imperiyasi tarkibida bo'lgan. Xorazmning shuningdek Tuproqqal'a shahar yodgorligi juda muhimdir. Bu shahar podsho saroyi zallar va haykallar topilgan. Bu yodgorlikni Sergey Pavlovich Tolstov o'rgangan,. Maydoni 100 gektardan ortiqdir 20 dan ortiq loy haykallar topilganligi aytiladi. Shu kabi arxeologik tadqiqot ekspeditsiyalar natijasida va ularning

tadqiqotlari natijasida Xorazm tarixi yanada boyidi va tanildi. Mening fikrim hali o'rganiladigan narsalar bor shuningdek haqli yodgorliklar to'liq o'rganilib bo'linmagan yodgorliklar ham bor narsalar Katqal'a yodgorligidir. Bu yodgorlikni o'rganish hozirgacha ham davom etmoqda va bu tadqiqotlar natijasida Xorazm tarixining deyarli hali bir qismi yoritildi hali ochilmagan qirralari ko'pdir. Hozirgi kunda Xorazmda arxeologiklar tadqiqotlar davom etmoqda. Xususan Xorazmning qadimiy shaharlari: Katqal'a, Qalajiqal'a, Xumburtepa, Xazorasp va Olma otishgahn qadimiy ko'hna manzilgohlarida arxeologik dala tadqiqotlari olib borilmoqda. Hozirgi kunda Xorazmda Mamun akademiyasi ish faoliyat olib bormoqda. Xiva shahrida joylashgan. Hozirda bu yerda arxeolog va yosh tarixchilar o'z tadqiqotlarini olib bormoqda. Ayniqsa u yerda Xorazm arxeologiyasiga katta hissa qo'shgan ustozimiz Bahrom Sadullayev ish olib bormoqda. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktoridir. Ko'plab yillardan buyon ustoz Katqal'ada arxeologik dala tadqiqot ishlarini olib bormoqda va bu tadqiqotlar natijasida Xorazm arxeologiyasi tarixining ko'p qirralari yoritib berilmoqda. Hozirgi kunda Xorazm arxeologiyasida yana to'liq ochib o'rganilmagan Xazorasp shahridir. So'ngi tadqiqotlarga ko'ra uning yoshi miloddan avvalgi VII – VI asrlar deb belgilanmoqda. Demak men hozirgi kunda Xorazmda arxeologiya sohasi shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Lekin Xorazmda arxeologik tadqiqotlarda yanada chuqurroq o'rganish zamonaviy axborot texnologiyalaridan kengroq foydalanish GPS va boshqalardir. Shuningdek men qiziqtirgan narsa bu Xazorasp qal'asidir. Chunki devorlarining ko'p qismi saqlanib qolgan va men bu yerda ko'proq tadqiqot olib borishni so'rardim olimlarni hali Xazoraspning ochilmagan qirralari ko'p mening naznimda. Chunki Xazoraspda mening eshitishimcha Avesto zardushtiylikka xos elementlar topilgan deb fikr bildiradilar tadqiqotchilar. Menga shunisi qiziq men shu ishga qo'l ursammikan deb o'ylayabman balkim biron-bir yangilik chiqib qolar. Men Xorazmlik olim tadqiqotchilarga ham shu maslahatli ishni taklif qilgan bo'lardim. Meni shu tomoni qiziqtirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.P.Tolstov. *“Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab”* 1964 – yil
2. Ahmadali Asqarov *“O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi”* 2015 – yil
3. Yahyo G‘ulomov *“Xorazmning sug‘orilish tarixi”* 1959 – yil
4. Vikipediya 2017 - yil
5. Итина. М.А *“История из степных племя Хоразмских экспедится основной этого перепиктивный и средованный”* 1981 - г
10. В.А.Лившиц *“История Тажикиского народа”*
11. Ваймберг. Б.И *“Шотодукеские племена в древнем Хоразме и археология”* 1981 - г
6. С. П. Толстов. *“Древние Хорезме”* 1948 – г
7. E.V.Rtvladze *“O‘zbek davlatchiligi tarixi va boshqaruv shakli”* 2021 – yil
8. Sh.B. Shaydullayev *“O‘zbekiston hududida davlatchilikning paydo bo‘lishi va rivozlanish bosqichlari”* dissertatsiya 2009 – yil
9. *Qadimgi Surxon tarixidan lavhalar ilmiy jurnali “Qadimgi sivilizatsiyalar chorraxasida”* 2018 – yil